

SIRDARYO VILOYATIDAGI GIDRONIMLARNING ETIMOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Kenjayeva Iroda Alisherovna

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati gidronimlarining lingvistik va onomastik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda viloyat hududidagi tabiiy va sun'iy suv obyektlari nomlarining shakllanish omillari, etimologiyasi, leksik-semantik xususiyatlari hamda tarixiy taraqqiyoti yoritilgan. Tadqiqot natijalari Sirdaryo viloyati gidronimlari hududning tarixiy-geografik va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim til birliklari ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va iboralar: onomastika, gidronim, Sirdaryo viloyati, toponim, suv obyektlari, ariq, kanal, ko'l, daryo, etimologiya, leksik-semantik tahlil, sug'orish tizimi, tarixiy geografiya.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan onomastika atqali nomlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, semantik xususiyatlari hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganadi. Onomastika tarkibida antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, oronimlar, gidronimlar alohida tadqiqot obyekti sifatida qaratiladi. Ushbu yo'nalishlar orasida gidronimlar, ya'ni daryo, soy, kanal, ko'l, buloq, dengiz, suv ombori va boshqa suv obyektlarining nomlarini o'rganuvchi bo'lim alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Gidronimlar nafaqat geografik obyektlarni nomlash vositasi, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, madaniyati, xo'jalik faoliyati va til taraqqiyoti

haqida muhim ma'lumotlarni saqlovchi lingvistik birliklar hisoblanadi. Suv obyektlari nomlari ko'pincha qadimiy qatlamga mansub bo'lib, ular orqali muayyan hududning tarixiy-geografik xususiyatlari, qadimgi tillar va etnik jarayonlar haqida ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Shu sababli gidronimlarni o'rganish tilshunoslik bilan bir qatorda tarix, geografiya, etnologiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda gidronimlarning etimologiyasi, semantikasi, strukturasi va hududiy xususiyatlarini tadqiq etish, ularni tizimli ravishda tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi. O'zbekiston hududidagi barcha viloyatlar qatori Sirdaryo viloyati hududidagi gidronimlarning shakllanishi, ularning milliy va tarixiy xususiyatlarini aniqlash, mahalliy nomlarning saqlanishi hamda ilmiy tavsifini yaratish onomastika sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Sirdaryo viloyati aholisining turmush tarzi o'zgarishi, sug'orish tizimining kengayishi natijasida gidronimlar tizimida ham o'zgarishlar yuz berdi. Ilgari tabiiy suv manbalari asosiy o'rin tutgan bo'lsa, keyinchalik sun'iy sug'orish inshootlari paydo bo'lishi bilan yangi nomlar yuzaga keldi. Sirdaryo viloyati gidronimik tizimining shakllanishida tabiiy suv obyektlari bilan bir qatorda inson faoliyati natijasida yaratilgan irrigatsiya inshootlari ham katta ahamiyatga ega. Kuzatishlar natijasida Sirdaryo viloyatida o'ttizga yaqin gidronimlar mavjudligi aniqlandi. Bular orasida tabiiy suv manbalari bilan bir qatorda sun'iy suv inshootlari ham mavjud. Daryo, ko'l, soy va buloqlar tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan gidronimlardir. Bularga *Axmonko'l*, *Beshbuloq*, *Moyliko'l*, *Sirdaryo*, *Sho'rbuloqsoy*, *Sho'rko'l*, *Sho'ro'zak* kabi suv bilan bo'liq toponimlar misol bo'ladi. O'rta Osiyodagi eng asosiy daryolardan biri bo'lgan **"Sirdaryo"** viloyat toponimiyasida alohida o'rin tutadi. Ushbu nom daryo nomi sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik

ma'muriy hudud nomining yuzaga kelishiga ham asos bo'lgan. "Sirdaryo" nomining kelib chiqishi haqida turli ilmiy qarashlar mavjud. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida bu daryo *Yaxartes*, "Avesto" kitobida *Danu*, *Yaosha*, X asrga oid "Hudud ul-olam" nomli asarda *Xashart*, qadimgi turkiy runiy yozuvlarida *Yenchiog'uz*, Firdavsiyning "Shohnoma" asarida va Hamdallah Qazviniyning "Qalblar saodati" asarida *Gulzarriyun*, arablar istilosidan keyingi yilnomalarda *Sayxun*, arab geografi Ibn Xurdodbehning asarlarida *Xishart* va *Kankar*, Beruniy asarlarida *Xasart* deb qayd etilgan.

Yana shunday suv inshootlardan biri – Sho'ro'zak Sayxunobod tumanidagi qishloq va ariq nomi. Shuningdek, Guliston tumanidagi ariqning ham nomi hisoblanadi. Suv obyektlari orasida *o'zak* komponenti bilan murakkablashgan toponimlar ko'p uchraydi va bu asosan, gidronimlarga xos xususiyatdir. Qadimgi turkiy tilda, aniqrog'i, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otut turk" asarida: "*ozuk – katta bo'lmagan suv hovuzi*", hozirgi turkiy tilda *ozuk – anhor, daryocha* degan ma'noni ifodalaydi. *Uzak (uzek) ukuz – "daryo"* so'ziga borib taqaladi: *o'kuz+ak – "kichik daryo", "daryocha"*. "*O'zak*" so'zidan tarkib topgan. Xususan, suv joy nomlari o'rnida *o'zak*, *o'qo'zak (daryocha)* so'zining o'zgarishidan paydo bo'lgan.

Sirdaryo viloyati hududida inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan suv inshootlari ham anchagina. Bunday gidronimlarga *Arunboy*, *Buxoro arig'i*, *Buloqariq*, *Bo'zariq*, *Bo'zsuv*, *Dehqon kanali*, *Do'stlik kanali*, *Kaufman kanali*, *Mirzaariq*, *Mirzasardoba*, *Mulla bobo qudug'i*, *Nikolay I kanali*, *Oyimariq*, *Romanovskiy kanali*, *Sardoba*, *Sarevna arig'i*, *Tuyatirtar kanali*, *Xiva arig'i*, *Yog'ochli Sardoba*, *Sardoba suv ombori*, *O'rinboy (O'rimboy) arig'i*, *O'rinboy(O'rimboy) o'g'iz arig'i*, *O'g'uzariq* kabilarni keltirishimiz mumkin.

Bular orasida ba'zilar bir joyning ikki xil nomi ham bo'lishi mumkin. Bir obyektning turlicha nomlanishiga sabab ijtimoiy, siyosiy jarayonlar, turli xil tuzum va mafkuralarning ta'siri deb qaraladi.

Sirdaryo viloyati gidronimlari orasida ariq nomlari alohida o'rin egallaydi. Hududda o'nlab ariq nomlari mavjud bo'lib, ular sug'orish tizimi rivojlanganini ko'rsatadi. "Ariq" indikatori bilan bog'liq nomlar lug'at tarkibida toponim sifatida mustahkam o'rin egallaydi.

Sug'orish tizimlari bilan bog'liq ayrim gidronimlar qadimiy turkiy til asosida shakllangan. Sun'iy ravishda yaratilgan suv inshootlari, ya'ni ariq nomining kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar turli fikrlarni bildirganlar. Jumladan, tilshunos olim Sh.Rahmatullayev "ariq" so'zi to'g'risida "aslida qadimgi turkiy tildagi oq(moq) ma'nosini anglatgan *a:r* fe'lidan **-(i)q** qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinroq *a:* unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan: $a:r+iq=a:riq> ariq> ariq$ ", deya o'z fikrini bildirgan.

Mashhur turkolog olim E.V. Sevortyan ham "*ariq*" so'zining kelib chiqishi haqida "qadimgi turkiy tildagi *oq* ma'nosini anglatgan *a:r* fe'li + *iq* qo'shimchasidan tashkil topgan va "kichik suv yo'li" ma'nosini ifodalaydi", deya ta'kidlagan. Toponimlarning shakllanish jarayonida bir nomning ikkinchi nomga ko'chishi hodisasi ham tez-tez uchray turadi. Bu jarayon ariq nomlarining paydo bo'lishida ham muhim rol o'ynagan. Natijada ayrim gidronimlar turli semantik guruhlariga ajralgan. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, o'rganilgan gidronimlarning o'ntasi "**ariq**" indikatori yordamida hosil bo'lgan. Ushbu indikator turli mavzudagi nomlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Birinchi guruhga **antroponimlar** asosida yuzaga kelgan ariq nomlari kiradi. Masalan, ***O'rimboy ariq*** (*O'rinboy ariq*) – Mirzacho'l hududida joylashgan

qadimgi ariq nomlaridan biridir. Bu nom inson ismi bilan bo'liq bo'lib, antroponimik xarakterga ega. Mazkur ariq Sirdaryo daryosidan suv olgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, u Amir Temurning buyrug'i bilan qazilgan. Ariq suvi Yo'g'ochli Sardobagacha yetib borgan. Hozirgi kunda bu ariqning izlari Guliston tumanidagi Boyovut va Ko'nchi qishloqlari hududlarida saqlanib qolgan.

Ikkinchi guruhga **toponimlar** asosida shakllangan nomlar kiradi. Masalan, **Axmonko'l** ko'l nomi hisoblanadi. U Sayxunobod tumani markazi bo'lgan Sayxun shaharchasidan taxminan 5-6 kilometr masofada, Sirdaryo bo'yida joylashgan. Shuningdek, **Buxoro arig'i** Mirzacho'l hududida mavjud bo'gan qadimiy ariqlardan biri hisoblangan. Bu ariq Mirzacho'lga suv chiqarish uchun mo'ljallangan kanalning boshlanish nuqtasi sifatida xizmat qilgan.

Uchinchi guruhga esa **obyektning tabiiy xususiyatini bildiruvchi nomlar** kiradi. Masalan, **Qaroy ariq** shunday nomlardan biridir. Ushbu ariq XV asrda Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qayta tiklangan. Ariq suvini Tuyatortar arig'idan olgan. Qayd etish kerakki, aniqlangan gidronimlarning aksariyati aholi punkti nomi asosida shakllangan bo'lib, bu holat hududdagi joy nomlari bilan suv obyektlari nomlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Mirzacho'l hududining o'zlashtirilishi va sug'orish tizimining shakllanishida yirik gidrotexnik inshootlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu jarayonda Sirdaryo daryosidan suv olgan va dastlab "*Romanovskiy kanali*" deb nomlangan kanal alohida o'rin tutadi. Kanal knyaz Romanovskiy sharafiga qo'yilgan bo'lib, 1917-yildan boshlab "*Shimoliy Mirzacho'l kanali*" deb atalgan. 1936-yilda unga S.M. Kirov nomi berilgan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach esa mazkur gidroinshoot "*Do'stlik kanali*" nomi bilan yuritila boshlandi.

Hududda sugʻorish ishlari ruslar kelishidan ancha avval boshlangan boʻlib, mahalliy aholi tomonidan qazilgan koʻplab ariqlar orqali Mirzachoʻlga suv chiqarilgan. Qadimiy sugʻorish inshootlari qatoriga “*Oʻrimboy ariq*” nomli gidronim ham kiradi. Ushbu ariq Mirzachoʻl hududidagi eng qadimgi sugʻorish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Oʻrimboy ariqʻining izlari hozirgi kunda Guliston tumanining Boyovut va Koʻnchi qishloqlari hududida saqlanib qolgan. Shuningdek, “*Oʻrimboy oʻgʻiz ariqʻi*” ham qadimiy ariq nomlaridan biri boʻlib, u Oʻrimboy ariqning oʻng irmogʻi sifatida faoliyat yuritgan. Mazkur ariq Guliston tumanidagi Koʻnchi bozori oldidan boshlangan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Sirdaryo viloyati gidronimlari hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, aholi turmush tarzi hamda til taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq holda shakllangan. Viloyat hududidagi daryo, kanal, ariq, koʻl va boshqa suv obyektlari nomlari oʻzida qadimiy til qatlamlari, mahalliy sheva xususiyatlari hamda tarixiy-etnografik jarayonlarning izlarini saqlab qolgan. Gidronimlarning leksik-semantik va etimologik tahlili ularning aksariyati suvning tabiiy xususiyatlari, joylashuvi, xoʻjalikdagi vazifasi yoki tarixiy voqealar bilan bogʻliq holda nomlanganligini koʻrsatadi. Ayrim gidronimlar esa hududda yashagan qabila va elatlar, mashhur shaxslar yoki qadimiy toponimik qatlam bilan chambarchas aloqador ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu nomlarni ilmiy jihatdan tavsiflash, ularning etimologiyasini aniqlash va zamonaviy oʻzgarishlarini kuzatish milliy toponimik merosni asrash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: “BOOKMANY PRINT”, 2024. – 83-b.
2. Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статический очерк. – Петроград, 1914. – С. 65-70.
3. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili etimologik lugʻati. I jild. Toshkent: Universitet, 2000. – B 31.
4. Ходжиев М., Қудратов С., Самадов Б. Сирдарё тарихи. Монография. – Гулистон: Зиё, 2020. – Б. 80.
5. Пиримқул Дўст Мухаммад. Сирдарё кеча ва бугун (Мирзачўлни ўзлаштириш тарихи). II қисм. – Гулистон, “Зар қалам” нашриёти, 2002.